



**YANGIQO'RG'ON XTBga qarashli
54-sonli maktab direktori**

**ABDUVOHIDOVA
MUQADDASXONning**

**“MA'NAVİYAT INSONNI
YUKSALTIRUVCHI KUCH”**

MAVZUSIDAGI MA'RUZASI

MAVZU: Ma'naviyat insonni yuksaltiruvchi kuch

REJA:

1. Ma'naviyat qalb ko'zgusi
2. Ma'naviyatni anglash
3. Darslarda o'quvchilarga ma'naviy tarbiya berish

MA`NAVIYAT - QALB KO`ZGUSI

Ma`naviyat tufayli insonni dunyoqarashi vatan va el yurtga muxabbat, bajarayotgan ishga sadoqat, insorparvarlik tarbiyasi, axloqi, tevarak atrofda yo`z berayotgan voqea - xodisalarni to`g`ri tushunishi paydo bo`ladi. Ma`naviyat tufayli milliy qadriyatlar tiklandi, urf-odatlarimiz, din-imonimiz, ulug` allomalarimizga bo`lgan e`tiqod kuchaydi, san`at, ma`daniyat, adabiyotimiz yangi mazmun, yangi usullar bilan boyidi va rivojlana boshladi. Ma`naviyat yana bu o`zlik demakdir. Ma`naviyat tarix, ma`naviyat iymon - e`tiqod. Ma`naviyat muxim vazifa va muqaddas burchdir. O`zligini anglab yetgan kishi ota - bobolari kim ekanligini biladi. Bunday insonning iymoni, e`tiqodi barkamol bo`ladi.

Ma`naviyat so`zi arabcha ma`no - rux, aql, ong-idrok, ruxan xolat, ichki kayfiyat, dadillik, jasorat, g`amxo`rlik, qayg`urish, didli bo`lish kabi ma`nolarni anglatadi. Ma`naviyat inson ongi va shuurini erituvchi bir nur. Odamzot ma`naviyat bilan oshno bo`lgandagina, inson degan sharaflı nomga sazovor bo`ladi.

Ma`lumki Vatanimiz tarixining buyukligi avvalo xalqimiz ma`naviyati va ma`rifatining yuksalishi bilan bog`liq. O`zbek zamini tarixi, uning buyuk taraqqiyot yo`li, iste`dodi bilan jaxonni xayratga solgan buyuk daxolari, olim -u ulamolari, shoiru - jaxongirlari, samoga bo`y cho`zgan maxobatli asori —atiqalari bilan olamga mashxur.

Al- Xorazmiy, Farobiy, Farg`oniy, Ibn Sino, Imom al - Buxoriy, At Termiziy, Marg`iloniy, Zamaxshariy, Amir Temur, Mirzo Ulugbek, Alisher Navoiy, Zaxiriddin Muxammad Bobur kabi buyuk ajdodlarimizning ilm - fan, ma`naviyat va ma`rifatning yuksalishiga, insonning taraqqiyotiga qo`shgan xissalari ularning bemisl kashfiyotlari, yaratgan asar va obidalari bugungi kunda xam xalqimiz daxosi sifatida butun jaxonni xayratga solmoqda. Yurtboshimiz ta`birlari bilan aytganda «O`zbek xalqi dunyo maydonida kuni kecha tasodifan paydo bo`lib qolgani yo`q. Biz boy tarix, yuksak madaniyat, buyuk ma`naviyat vorislarimiz» (I A Karimov «Yuksak ma`naviyat yengilmas kuch» 163-bet.)

Prezidentimiz - «Xozirgi kunda ma`naviyatimizning asrash uchun nima qilish lozim va unga taxdid soladigan xurujlarga nimani

qarshi qo'yish kerak degan savolga «xar qaysi inson o'zligini anglashi, qadimiy tariximiz va boy ma'daniyatimiz, ulug' ajdodlarimizning merosini chuqurroq o'zlashtirishini, bugungi tez o'zgarayotgan xayot voqeligiga ongli qarab, mustaqil fikrlashi va davrimizdagi barcha o'zgarishlarga daxldorlik tuyg'usi bilan yashashi zarur» deb javob qaytardi» (I A Karimov «Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch» 17-bet.)

MA`NAVIYATNI ANGLASH

MA`NAVIYAT - insonni ruxan poklanish qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi irodasini baquvvat, imon-e'tiqodini butun qiladigan, beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir. Ma'naviyat tushunchasi jamiyat xayotidagi g'oyaviy, mafkuraviy, ma'rifiy, madaniy, diniy va axloqiy qarashlarni o'zida to'la mujassam etadi.

Ma'naviyatning negizi va ma'no mazmunini belgilaydigan asosiy xususiyatlar:

1. Insonning ruxan poklanishi va qalban ulg'ayishi;
2. Odamning ichki dunyosi va irodasini baquvvat, imon-e'tiqodini butun qilishi bo'lsa; Odamzotning ma'naviy boyligini belgilab beradigan asosiy mezon: Alloxning o'zi bizga buyurgan komil inson bo'lish, xalollik va adolat bilan xayot kechirish kabi fazilatlarni anglash, ularga ega bo'lish va amal qilib yashash.

"Insonni inson qilib yetishtiradigan narsa tarbiyadir" deydi Demokrit Boshlang'ich sinfda tarbiyalanuvchini mustaqil fikrlashga o'rgatishda muammoli vaziyatni tashkil qilish o'rta va yuqori sinflarga nisbatan farq qiladi. Bu yoshdagi bolaning hayotiy tajribasi kam va xulosa chiqarishni bilmaydi. Ular ko'proq taqlid qiladi. Boshlang'ich sinf ona tili, matematika, tabiat, odobnoma darsligida tashkil qilingan mustaqil ishlar, ularning yoshi va intellektual imkoniyatlari doirasidagi muammoli vaziyatlar xulosa chiqarishga emas, fikr aytishga, munosabat bildirishga undaydigan bo'ladi

Bola muammo bilan to'qnashgandagina mustaqil fikrlay boshlaydi. Buning uchun uni asta-sekinlik bilan taqqoslash, tashkil qilish, umumtashtirish, aniqlik kiritish, tizimga sola bilish kabi

ko'nikmalarni egallab borishga o'rgatib boriladi. Bu o'rinda o'qituvchi masalani to'g'ri qo'ya bilishi, o'quvchini qiziqтира olish, bolaning tuyg'ularini qo'zg'ata bilishdan iborat. Bundan tashqari suhbat jarayonida bola faoliyati qanchalik erkin bo'lsa, hurligiga, fikrlariga, o'y-hayollariga dahl qilinmasa, unda shaxsga hurmat tuyg'usi ham paydo bo'ladi. Bolalar boshlang'ich sinfdan boshlab bir-biri bilan do'st tutunish, uning qadriga yetish, kattani xurmat qilish, kichiklarga g'amxo'rlik ko'rsatish, ota-onani va ona-Vatanni astoydil sevish kabi ijodiy fazilatlarga ega bo'lish darajasida bo'ladilar.

3-sinf o'qish kitobidagi "Xalq og'zaki ijodi" bobining "Maqollar" bo'limi bolalar kamolotida ahamiyat kasb etadi. Maqollar odamlar ongini o'stiradi, ularni to'g'ri, rostgo'y, mard - jasur va matonatli bo'lishlikka o'rgatadi,; insonlardagi eng noyob fazilatni targ'ib etadi. "Aql zakovatli, yuksak ma'naviyatli kishilarni tarbiyalay olsakkina, oldimizga qoygan maqsadlarga erisha olamiz, yurtimizda farovonlik va taraqqiyot qaror topadi." Ulug' yo'iboshchimizning butun hayoti va faoliyatini ta'lim-tarbiya ishiga bag'ishlagan insonlarga qarata aytgan bu so'zlarida olam-olam ma'no, maqsad va niyat mujassam.

Maktabimizda o'tkazilgan anjumanda o'quvchilar tomonidan xurmatli prezidentimizning "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" asari keng ko'lamda o'rganib chiqilgani ma'lum bo'ldi.

Unda ko'rsatilishicha mustaqillikdan avvalgi davrda ko'chalar nomlari Marks, Engels, Lunacharskiy, Kirov, Voroshilov yoki shaxarlarda "S-1", "S-2", "S-3" kabi nomlangan bo'lsa, bu xech bir xis-tuyqu yoki xotira uyg'otmaydi o'quvchida. Uni o'rniga xozirda maxallada o'tgan taniqli kishilar nomi qo'yilsa

faxrlanish tuyg'usini xis qiladi
deyilgan.

O'quvchilar xam o'z ko'chalari xaqida va nomlangan odamni xizmati xaqida so'zlab beradilar.

Ma'naviyat boshlanqich sinflarda odobnoma, tabiatshunoslik, o'qish darslarida shakllantirilib boriladi. Masalan: ertakdagi odobli-odobsiz bolalarni taqqoslash, odob - axloq xaqidagi xadis, rivoyatlar aytib berish, "Men kimman", "Ona-kim", Vatan kabi so'zlarni o'rta yozib quyosh kabi nur chiqarib bir necha xilgacha ta'riflash kabi usullarning samarasi kattadir.

Tabiatshunoslik fani orqali tabiatni asrab-avaylash, suvlarni iflos qilmaslik xaqida misollar bilan tushuncha beriladi. Masalan: "Bizning Nanay qishlog'imiz oromgox diyor xisoblanadi. Yozda turli shaxar-qishloqlardan dam oluvchilar kelishadi. Shunda ular bizning qishlog'imiz tabiatini buzilishiga sababchi bo'lishadi. Chiroyli maysalar, daraxtlar o'sib turgan joylarda o'choq qazishadi. O'tirgan joylariga turli xil chiqindilar; bakalashka, shisha idishlar, yelim xaltalar tashlashadi. Ayniqsa suv xavzalarimizga turli xil chiqindilarni tashlashadi. O'quvchilar biz bunday ishlarni qilmasligimiz va shu ishlarni qilayotganlarga unday qilmaslik kerak ekanligini tushuntirishimiz kerak. Bu bilan biz nafaqat o'zimizning, balki minglab vatandoshlarimizning sog'ligi xaqida qayg'urgan bo'lamiz." – deb o'rgatib boramiz.

" "Navro'z" bayrami - milliy bayramimiz. Unda odamlar bir-birlariga mexr ko'rsatib, birgalikda tansiq taomlar tayyorlab, qo'ni - qo'shnilar va yoru-birodarlarga ulashishadi. Urushganlar yarashib, gina-kudratlar unutiladi" kabi misollar orqali ma'naviyatimiz shakllantiriladi.

Tasviriy san'at darslarida ifloslangan tabiat burchagi, nuqul past baxo oladigan yoki doim maktabga kech qoladigan o'quvchi kabi mavzularda rasmlar chizdirish xam o'quvchilarning ma'naviy tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Boshlanqich sinflarda ma'naviyatni darsdami, tadbirlardami, to'garaklardami qaerda va qay yo'l bilan shakllantirmaylik, oddiy bola tilida, ravon, o'quvchi bilan do'st - o'rtoq bo'lib olib borilsa,

oldimizga qo'yilgan barcha maqsadlarimizga erishamiz deb xulosa qilaman.

